

KONFLIKT TURLARIGA KO'RA FOJIA TASVIRI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17477639>

Sherqo'ziyev Shukrulloxon Shuhratjon o' g'li

"Fergana school ziyo" xususiy maktabining Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
sherqoziyevshukrullo@gmail.com +998911505580

Annotatsiya

Ushbu maqolada fojia tasviri konfliktual holatning turlariga k o'ra tahlil etilgan. Konflikt turlarining birlamchi ma'no aks etishi hayot va o'lim tasvirining tasnifini yuzaga keltiradi. Konfliktning ichki b o'linishlarida fojia tasviri ham alohida ahamiyat kasb etadi.

DESCRIPTION OF TRAGEDY ACCORDING TO TYPES OF CONFLICT

Abstract

In this article, the image of tragedy is analyzed according to the types of conflict situations. The primary meaning of the types of conflict reflects the classification of the image of life and death. The image of tragedy also plays a special role in the internal divisions of the conflict.

ОПИСАНИЕ ТРАГЕДИИ ПО ТИПАМ КОНФЛИКТА

Аннотация

В данной статье анализируется образ трагедии в контексте типов конфликтных ситуаций. Первичное значение типов конфликта отражает классификацию образа жизни и смерти. Образ трагедии также играет особую роль во внутренних членениях конфликта.

Kalit s o'zlar

Konflikt, fojia tasviri, shaxslararo konflikt, shaxs va jamiyat (muhit) konflikti, ruhiy konflikt, konfliktlar zanjiri, ruhiy fojia, jismoniy o'lim.

Keywords

Conflict, image of tragedy, interpersonal conflict, conflict between the individual and society (environment), spiritual conflict, chain of conflicts, spiritual tragedy, physical death.

Ключевые слова


Конфликт, образ трагедии, межличностный конфликт, конфликт личности с обществом (средой), духовный конфликт, цепь конфликтов, духовная трагедия, физическая смерть.

Adabiyot insonni ruhan tarbiyalovchi, estetik tafakkur uygʻotadigan, hissiyotlarni qoʻzgʻatuvchi odo va hayotni oʻrgatuvchi vositadir. Ilk badiiy adabiyot namunalaridan boshlab hozirga qadar uning koʻlamdorligi ortdi, inson tafakkurida evrilishlar yuz berdi. Shu jihatlari bilan odamning hayotga boʻlgan qarashlari rivojlanib, realikka intilib bordi. Binobarin, hayot va mamot masalalarida kishilarning fikriy oʻzgarishlari yuz berdi. Avvalida fojia deb qaralgan oʻlim holatlari islom madaniyati, islom tafakkuri taʼsirida oʻzgacha tus ola boshladi. Hobilning oʻlimi orqali yer yuzidagi dastlabki qotillik hamda birinchi oʻlim holati yuz bergan boʻlsa, shu bilan odamning ziddiyatlarga moyil ekanligi va bu konfliktli vaziyatda bir tomonning gʻolibligi natijasida tirik qolish, oʻzining istaklarini davom ettirish hamda uning aksi oʻlaroq magʻlublik samarasi bilan oʻlim holatlari va niyatiga yeta olmaslik yuz berdi. Nega biz bu oʻrinda konfliktga duch kelgan ikki shaxsni magʻlub va gʻolibga ajratyapmiz? Shu oʻrinda savolning javobi ham oydinlashadi, yaʼni ziddiyatlari bilan kurashga kirgan shaxs oʻz menini yashatmoqchi boʻladi. Bu natijaviy hodisa bilan gʻalaba qiluvchi ham, magʻlub boʻlguvchi ham tabiiy ravishda ajraladi. Inson xarakteridagi ilk qarama-qarshilik shu tariqa ildiz otdi.

Keyingi badiiy adabiyot namunalariga eʼtibor qaratsak, bu ziddiyatlar tabiati oʻzgardi. Endilikda konflikt faqatgina shaxs oʻrtasidagi vaziyat boʻlmay qoldi. Ikki tomon oʻrtasidagi kurash jamiyat va shaxs munosabatiga koʻchdi. Oʻz qarashlariga sodiq qolgan va ommani oʻzgartirishga harakat qilgan shaxs qismatida ruhiy oʻlim holatlari ham yuzaga chiqdi. Buni oʻtgan asrning 70-yillarida yozilgan Oʻktam Usmonovning “Girdob” romanidagi Aziz obrazida ham koʻr olamiz. Oʻsha davr ilm-fan jamiyatiga qarshi fikrlari bilan kurashgan Azizning qismati yaxshi yakun topmaydi. Bunga, albatta, asardagi turli kurashlar sabab boʻladi. Paxtachilik tarixida yangi samarador, zararkunandalarga qarshi nav yaratishga uringan yosh olimning qarashlari katta fan arboblari oldida qarshilikka uchraydi va “befoyda urinish” deb topilib, unga chek qoʻyishni aytishadi. Keyin esa natijasi chiqib qolgan ishning “ega”lari koʻpaya boshlaydi, oʻz tadqiqotining boshqalar qoʻliga oʻtib ketishini xohlamagan Azizning bu kurashida unga jiddiy zarba berilishi asardagi konfliktual syujet liniyasidagi jarayonlar natijasi hisoblanadi.

Ijtimoiy taraqqiyot qarama-qarshiliklarning natijasi sifatida ro'yobga chiquvchi hodisa. Badiiy adabiyot ham unga monand tarzda shakllanib boradi, harakatlar turli kurashlar oqibati bilan rivojlanib boradi.⁴⁵

Kurash "kim" va "nima"lar ishtirokiga ko'ra uch asosiy bo'linish kasb etadi. Hayot(yashab qolish) va o'lim(yo'q bo'lish) esa shu turdagi ziddiyatlarning hosilasi sifatida namoyon bo'ladi. Konfliktli o'lim – konflikt yuz bergan holat o'lim bilan natijalanadi. Asardagi fojiali nuqta konflikt oqibatida yuz beradi.



⁴⁵ Sulton I. Adabiyot nazariyasi. –T.: "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005.

Shaxslar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar natijasida sodir bo'ladigan fojia holatlari haqida gap borganda ziddiyatlarni yuzaga chiqaruvchi turtki o'sha ziddiyatlarni harakatga keltiruvchi kuch hisoblanadi. Xususan, "O'tkan kunlar" da kumush va Otabekning unga bo'lgan muhabbati kurashlarni harakatlantiruvchi funksiyasini bajargan. Otabek va Homidning hayot-mamaot janglari shu ziddiyatlar tufayli yuzaga chiqqan.

Shaxslar(qahramonlar) o'rtasida sodir bo'ladigan kurashlarda *jismoniy o'lim* holatlari kuzatildi. Homid va Kumush fojialari bunga yaqqol misoldir.

Jismoniy o'lim – kishining tanasidan ruh chiqib ketishi, moddiy hayotdan yo'q bo'lishidir. Abdulla Qodiriy sud oldida so'zlagan nutqlaridan birida ushbu atamani qo'llagan. *Endi jismoniy o'lim menga qo'rqinch emasdir.* (Фитна санъати. – Т.: Фан, 1993. II китоб.)

an tashqaridagi asar qahramonlari ta'sir ko'rsatadi. Ulug'bek Hamdamning "Ota" romanidagi Po'lat hamda Erboyning qarama-qarshiliklari Sevinchning fojiasiga turtki bo'lgan. Asardan keltirilgan quyidagi jumlagi e'tibor qaratamiz:

" – Esini, uyatini yo'qotgan sensan, Po'lat, sen! Yana qizing! Menga o'dag'aylagandan ko'ra, bor, ana, qizingdan xabar ol! Bobo bo'psan, axir! Elga osh berarsan mundoq... – o'tirganlarga qarab ma'noli ishshaydi Erboy ota⁴⁶".

Bu o'rinda shaxslararo konflikt to'g'ridan-to'g'ri fojia bilan natijalanmadi. Uning qahramon ruhiyatiga o'tkazgan ta'siri orqali personaj o'limi paydo bo'lgan.

Shaxs va jamiyat oralig'ida yuzaga chiqadigan ziddiyatlarda esa o'zaro kurashlarni paydo qiluvchi kuch(turtki) yakka shaxsga taalluqli bo'lmaydi. U yakka shaxs obrazida ommaning istiqbolini namoyon etadi. Erkin Vohidovning "Ruhlar isyoni" dostonidagi Nazrul Islom timsolida xuddi shunday kurashlar aks ettirilgan:

O'zga edi el dardi.

Zamon uning

Yonib turgan

*Yuragini so'rardi.*⁴⁷

Ushbu dostonida muhitdagi adolatsizliklarga qarshi kurashgan shoirning fojiasi bayon etilgan.

"Girdob" romanida esa shaxs va jamiyat(muhit) o'rtasidagi qarama-qarshiliklar ilmiy doiraga ko'chadi, "Ruhlar isyoni" da kurash millat doirasida bo'lgan bo'lsa, "Girdob" da bu o'zgacha tus olib, tinch doiraga ko'chadi. Asar

⁴⁶ Хамдам У. Ота. – Т.: Янги аср авлоди, 2020.

⁴⁷ Вохидов Э. Рухлар исёни. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980.

qahramoni Azizning *ruhiy fojiasi* romaninng xarakterlovchi belgilaridan biri hisoblanadi.

Ruhiy fojia(o'lim) – shaxsning turli tashqi ta'sirlar natijasida psixologik kuchli tushkunligi, hayotga bo'lgan yashash qiziqishining yo'qligi. Ba'zan ma'naviy o'lim ham bu atama o'rnida ishlatiladi. *Bir necha shaxslarning orzusicha, ma'naviy o'lim bilan o'ldirildim.* (Фитна санъати. – Т.: Фан, 1993. II китоб.)

Bu taraqda qarama-qarshilikning natijasida qahramonning jismoniy(Nazrul Islom) va ruhiy(Aziz) o'limlari namoyon bo'ladi.

Ruhiy(Ichki) kechadigan qarama-qarshilik qahramon botinida yuz beradigan hodisa hisoblanib, uning natijasida paydo bo'luvchi fojia tasvirlari ham yakka shaxs qismatida yotadi. Bunda ziddiyatlarning fojia va fojiasiz oqibatlanishi aniq namoyon bo'ladi, ya'ni o'lim yoki hayot davoyligi konkretlashib, ikkisidan birigina personaj qismatida ro'yobga chiqadi. Ichki kurashlar badiiy asar qahramonining ruhiy hamda jismoniy fojiasini ko'rsata oladi. Psixologiy hamda ruhiy(ichki) ziddiyatlar bir tushunchani ifodalaydi. Ruhiy(ichki) ziddiyatlar qolgan ikki konflikt turlariga ta'sir o'tkaza olishiga ko'ra o'ziga xos xarakter kasb etadi. Buni "Kecha va kunduz"dagi Miryoqub timsolida ko'rishimiz mumkin, uning ruhiyatida murakkab fikriy jarayonlar ("ichki kurashlar") boshlandi. Bu jarayonlar natijasida u o'zini ijtimoiy shaxs sifatida tanishga, o'zining ijtimoiy maqomini anglashga keldiki, bu endi uni faol ijtimoiy harakat (ya'ni «tashqi harakat»)ga undashida yaqqol ko'rinadi⁴⁸, Miryoqub ruhiyatidagi evrilishlar uni o'zi va muhit o'rtasidagi fikriy kurashlariga olib keldi. Bu o'rinda konflikt hech qanday fojiaga ta'sir o'tkazmaydi.

Endilikda xuddi shunday holat "O'tkan kunlar"da Otabek obrazida ham namoyon bo'ladi. Bunda faqat ziddiyatlar *konfliktlar zanjirini* yuzaga keltirmoqda. "Otabek ruhiyatidagi ziddiyat shuki, u zamonasining ilg'or ziyolisi sifatida inson shaxsini hurmat qiladi va ayni choqda o'z davri, muhiti ta'siridan butkul holi ham emas. Natijada Otabek muhit bilan konfliktida (ota-onasi uni ikkinchi bor uylantirishga jazm qilganda qarshi turgani mohiyatan qahramon-muhit konflikti, faqat bu narsa ota-ona bilan munosabat orqali ifodalanadi) yon berdi⁴⁹". Konfliktlar zanjiri so'ngida Kumushning fojiasiga turtki vazifasini bajaryapti. Buni quyidagi chizmada yaqqol ko'ra olamiz:

⁴⁸ Quronov D., Adabiyot nazariyasi asoslari. –T.: Navoiy universiteti, 2018.

⁴⁹ Quronov D., Adabiyot nazariyasi asoslari. –T.: Innovatsiya-Ziyo, 2020.

**Shaxs va muhit
konflikti**

Ruhiy konflikt

**Shaxslararo
konflikt**

Ichki ziddiyatlar natijasida ham insonning ruhiy o'lim vaziyati yuzaga chiqadi. Biz buni Asqad Muxtorning "Chinor" romanidagi Akbarali timsolida ko'ramiz: *"Akbarali endi hech narsaga hayron bo'lmaydigan bo'lib qolgan. Hayron bo'lish, o'ylash qobiliyatini yo'qotgan, bir mo'jiza yuz berib, otasi bilan onasi tirilib kelib, hozir ro'parasida paydo bo'lsa ham hayratda qolmas edi chog'i. U bir qo'li bilan xarsangga suyanganicha qotib qoldi, ko'zi tindi. Anchadan keyin zarhal harflar ko'z o'ngida yana paydo bo'ldi: "A-k-b-a... Akbarali G'oziyev... halok bo'ldi"*⁵⁰.

Shu o'rinda ruhiy ziddiyatlar samarasida yotgan hayot va mamot masalasini alohida-alohida tasnifga ajratish ma'qul, ya'ni ichki kechinmalar o'limga sabab bo'ladigan ziddiyat hamda hayotga qaytish, yashash hissiyotini uyg'otishga sabab bo'la oladigan kurashlar. Ruhiy ziddiyatlar natijasida hayot yoki o'limdan birini yaqqol yuzaga chiqishi bilan bunday tanatologik voqea o'ziga xos xususiyat kasb etadi.

Konfliktlar zanjiri – konflikt turlaridan birining keyingisiga ta'sir etishiga ko'ra uchala turning bog'lanishi. Masalan, "Girdob"dagi Muhiddin Jabborovich va Aziz o'rtasidagi qarama-qarshilik Azizning muhit bilan kurashlariga ta'sir o'tkazadi. Keyinchalik buning Aziz ruhiyatiga ko'chishi ichki(psixologik) konfliktni paydo etgan. Zanjir hosil qilish uchun ikkidan ortiq ta'sir doirasi hosil bo'lishi kerak Aks holda, biri ikkinchisiga turtki bergan bo'lib qoladi, xolos. Bir turdagi ikkidan ortiq konfliktli vaziyatlar bog'lanishni hosil etishi esa deyarli uchramaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Усмонов Ў. Гирдоб. – Т.: Шарқ, 2000.
2. Muxtor A. Chinor. – Т.: Yoshlar nashriyot uyi, 2018.
3. Бохидов Э. Рухлар исёни. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980.
4. Ҳамдам У. Ота. – Т.: Янги аср авлоди, 2020.
5. Фитна санъати. – Т.: Фан, 1993 (II китоб).

⁵⁰ Muxtor A. Chinor. – Т.: Yoshlar nashriyot uyi, 2018.